

CHET TILLARINI O'RGANISHNI AFZALLIKLARI

Mamanov Shahzod Zafar o'g'li

Sirdaryo IIV akademik listeyi, ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada chet tilini bilishning ahamiyati, uning afzalliklari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Chet tili, ingliz tili, globallashuv, o'rganish, qobiliyat, fikrlash, tadqiqot, metodika.*

Til o'rganish kishilik jamiyatida muhim sohalardan sanaladi. Ayniqsa bugungi kunda chet tillarini bilish xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Nega chet tilini o'rganish kerak? Axir barcha chet tillaridagi filmlar va kitoblar o'zbek tiliga ham tarjima qilinyaptiku? Albatta bu savol hammada tug'iladi. Chet tilini bilish xorijiy filmlar va kitoblarni asliyatida ko'rish imkonini beradi. Ajnabiy musiqalarini shunchaki emas tushunib tinglashga ko'nikasiz. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoq orqali ma'lumot izlaganizda boshqalarga qaraganda 10 marta ko'proq bilimga ega bo'lasiz. Globallashuv jarayoni shitob bilan o'zgarib borayotgan davrda avvalgidek masofa katta rol o'ynamaydi. Yildan-yilga sayohat qiluvchilar soni ortyapti. Bunda esa chet tillarini bilish muhim. Til o'rganish fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Britaniyalik olimlarning aniqlashicha, 2-tilni o'rganish miyaning nutqiy ravonlikni ta'minlovchi qismini rivojlantiradi. Til o'rganishga qancha erta kirishilsa, ravon va chiroyli gapirish ham shuncha yaxshilanadi.

Chet tillarni o'rganish miyangizni o'stiradi. Tadqiqotlar, siz necha yoshda bo'lishingizdan qat'i nazar, boshqa tilni o'rganishning kognitiv afzalliklarini namoyish etdi. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ikki tilli odamlarning miyasi kattaroq, xotirasi yaxshi, ijodiy, muammolarni hal qiladigan va boshqalar. Ushbu afzalliklar nafaqat ko'proq tillarni o'rganishni, balki hamma narsani o'rganishni osonlashtiradi. Vazifalarni tezda almashtirish qobiliyati, bugungi band bo'lgan ko'p vazifali dunyoda ayniqsa muhimdir. Ikki tilli vazifalar bir tilli hamkasblariga qaraganda ancha tezroq almashinishi va bir vaqtning o'zida ko'plab boshqa vazifalarni bajarishi mumkin. Chet tilini o'rganganingizda sayohat arzonlashadi va osonlashadi. Albatta ko'p insonlar sayohat qilishni hush ko'rishadi. Chet davlatga borganingizda til bilish sizga juda katta foyda beradi. Oddiygina ovqatlanishga borganda o'zingiz istagan taomni bemalol tushuntira olasiz. Yo'l so'rashni ham o'zingiz atrofdagimahalliy insonlardan so'rab, qiyinchiliklarsiz eplay olasiz. Agar siz o'zingiz bilan gid oladigan bo'lsangiz juda ham qimmatga tushardingiz. Chet tilni o'rganish ish topish uchun dunyo ochadi. Hech kimga sir emaski, chet tilini o'rganish ish bilan ta'minlash istiqbollari yaxshilashi mumkin. Har qachongidan ham ko'proq kompaniyalar dunyoning bir necha, ko'pincha o'nlab mamlakatlarida ish olib bormoqdalar, ammo ular hech bo'lmaganda bitta chet tilini tushunadigan odamlarni ishga yollamasdan

buni qila olmaydilar. Hatto kichik mahalliy kompaniyalarda ham ikkinchi tilda gaplashish qobiliyati sizni boshqa ish oluvchilardan ajratib qo'yishi ehtimoli katta.

Chet tilni o'rganish sizni ko'proq ochiq fikrlashga undaydi. Chet tilni o'rganish va mutlaqo yangi madaniyat va dunyoqarashga singib ketish -ochiq fikrlaydigan, tushunadigan, bag'rikeng shaxsga aylanishning eng ishonchli usuli va bu mutlaqo bebahodir. Dunyoni boshqa nuqtai nazardan ko'rish va siz va boshqalar qayerdan kelganingizni tushunish hayoliy, ko'zni ochadigan tajriba. Chet tillarni o'rganish o'z tili va madaniyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Chet tilni o'rganish aslida sizga teskari psixologiyani jalb qilishi va o'z ona tilingiz va madaniyatingizni yaxshiroq tushunishingizga imkon beradi. Bu chet tilini o'rganishning eng kutilmagan afzalliklaridan biridir. Siz nafaqat madaniy urf-odatlar, balki birinchi tilingizning grammatikasi, so'z boyligi va talaffuz uslublari to'g'risida ham ancha xabardor bo'lasiz. Bu, ehtimol chet tilining sobiq bir tilli kishilarga beradigan tinglash, o'qish va yozish qobiliyatlari yaxshilanganligini tushuntiradi. Chet tillarini o'rganishning afzalliklari sizning hayotingizning deyarli barcha jabhalarida muvaffaqiyat qozonish uchun sizni moslashtirish qobiliyatiga ega. Chet tilni o'rganish juda muhimdir va chet tilini o'rganish uchun son-sanoqsiz bunday sabablar mavjud. Chet tilni o'rganish til to'siqlarni yengishga yordam beradi va insonlarni o'zaro tushunish chuqurroq darajasida bog'laydi. Xo'sh, keling endi til mutaxassisi bo'lmagan o'qituvchilarni nega til bilishi muhimligini gaplashamiz. Ayniqsa hozirgi kunda o'qituvchilardan ingliz tilini bilish talab qilinmoqda. Bu nega kerak? Men bu haqida o'zimning fikrlarimni berib o'tmoqchiman. Hammaga ma'lumki, dunyo tili sifatida ingliz tili tan olingan. Hozirgi ikkita yoshdan biri ingliz tilini o'rganish harakatida yuribdi. Hech bo'lmaganda ushbu tilga qiziqish bor. Til o'rganish ham yosh davrlarga bog'liq. Bolalar kattalarga qaraganda ancha tez va oson o'zlashtirishadi. O'zbekistonda ko'plab yoshlarni bitta savol qiynaydi. U " chet tilini qanday qilib tez o'rgansa bo'ladi?" Muammoning asosiy sababi noto'g'ri yondashuvdadir. Chet tilini o'rganishda eng oson yo'lni tanlab bilish kerak. Bizning maktablarimizning ba'zilarida haliyam o'sha eski metodika ya'ni faqat yoz, qara mana shular. Zamonlar o'zgarmoqda, taraqqiyot o'zgarmoqda, rivojlanishlar boshlanmoqda. Demak biz ham zamonaviy usullardan foydalanishimiz kerak. Masalan, bolalarni chet tilini mustahkam o'rganib olishi uchun ularga turli qiziqarli o'yinlar tashkil etish. Hozirda chet tillarini o'rganish o'yinlar judayam ko'p. Masalan, " Quvnoq topishmoqlar" (Merry Riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar. Eng muhimi tillarni o'rganish uchun bizda kuchli xohish va istak bo'lishi kerak. Til o'rganishda o'zingizga bo'lgan ishonchni orttira olganingizdan keyin tilni o'rganishga kirishgan bo'lasiz.

Ko'pgina hollarda, boshqa tilni o'rganish bolaning turkiy qobiliyatini yaxshilaydi. Bolalar boshqa tillar haqida bilib olganlaridan so'ng, ular turkcha narsalarni o'rganadilar. Umumiy so'z birikmasi bolaga yangi so'zlarning ma'nosini o'rganishga yordam beradi. Eksperimental tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, faqat turk tilini

o'rganayotgan talabalar orasida turkiy ona tili rivojlanishida uzoq muddatli kechikish mavjud emas.

Chet tillaridan biri hisoblangan ingliz tili xalqaro tan olingan muloqot tili hisoblanib, 53 ta mamlakatda 400 milliondan ortiq kishi ingliz tilida so'zlashadi. Bundan tashqari ingliz tili biznes tili ham hisoblanadi, chunki chet elda ko'p bizneslar ingliz tilida olib boriladi. Ingliz tilining yana bir mashhur taraflaridan biri chet mamlakatlarda eng yaxshi filmlar, kitoblar va musiqalar ingliz tilida bo'ladi. Agar ingliz tilini o'rgansangiz ko'p imkoniyatlarga ega bo'lasiz. O'zbekiston ham ingliz tilini o'rganish borasida jahonda yetakchi o'rinlarda turishga harakat qilmoqda. Jumladan, Yurtimiz ingliz tilini bilish reytingida 100 mamlakat ichida 95-o'rinni egallab turibdi. Faqatgina Singapur mazkur reytingning kuchli o'ntaligiga kirgan yagona davlat bo'lib, beshinchi o'rinda egallagan. Hozirgi zamonda kamida bitta chet tilini bilish o'ta zarur va katta ahamiyatga ega bo'lib, uni o'rganish usullari boshqachadir. Ulardan biri bu kino va multiplikatsion filmlarni tomosha qilish hisoblanadi. Bugungi kunda yurtimizdagi ko'plab tajribali va malakali ingliz tili o'qituvchilarimiz Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya pedagoglari tajribasi va metodlariga tayangan holda innovatsion metodlardan foydalanib kelismoqda. Bu malakali o'qituvchilar orasida chet mamlakatda o'qib kelganlari ham uchraydi. Til o'rganish va o'qitishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Innovatsion texnologik vositalardan chet tili o'rganishning har bir bandi(o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish)da qo'l keladi. Xususan, chet tilini o'rganishda bunday texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari bor. Misol uchun, multimediya asosida chet tili o'rgatilayotgan o'quvchida to'rtta ko'nikmani rivojlantirish, qiziqarli materiallar orqali ham ko'rib, ham eshitib o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi.

Texnologiya rivojlanayotgan bir davrda biz chet tilini o'rganuvchilarni qiziqitira olish, ularning bilimlarini boyitishda innovatsion texnologiyang o'rni beqiyos deb ayta olamiz. Xulosa qilib aytganda, chet tillari darslarida innovatsion va zamonaviy texnologiyalardan va usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarnng mantiqiy fikrlash va o'ylash qobiliyatlari rivojlanadi, nutq ravonlashadi hamda tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Rivojlanayotgan mamlakatimizda vat ta'lim tizimi fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxslarni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar edi. Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, muloqot amaliyoti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jamol Jalolov "Chet til o'qitish metodikasi "
2. Kilicheva Mehriniso, Ataboyev Nozimjon "Chet tili o'qitishning integrallashgan kursi"
3. Zayniddin Sanaqulov, Baxromjon Joraboyev. Chet til o'qitish metodikasida zamonaviy metodlar, 2021

4. Muminova Feruza Muratjanovna.-Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish

5. O'. Hoshmov, I. Yoqubov.-“ Ingliz tili o'qitish metodikasi”(o'quv qo'llanma)
Toshkent: " Sharq" nashriyoti